



SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF RAISING SOCIAL ACTIVITY AND TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE

Shakhobidin Kholmatov

*candidate of philosophical Sciences, Associate Professor
Fergana branch of Tashkent University of Information Technology
Uzbekistan, Fergana city*

ABOUT ARTICLE

Key words: society, civil society, social activism, youth policy, tolerance, civic responsibility, modernization.

Received: 23.11.24

Accepted: 25.11.24

Published: 27.11.24

Abstract: today it is of paramount importance to educate the future generation spiritually harmoniously. Because there will be no exaggeration if we say that the positive effect of economic reforms, which began and are deeply rooted in our country, and, moreover, to what extent the solution of such a responsible and important task as the future of building a great state, is directly related to the solution of this particular issue. The level of development of civil society in the country can be determined, first of all, through the political activity of young people and the position of citizenship. This article explores the socio-philosophical aspects of promoting social activism and tolerance in young people.

YOSHLARDA IJTIMOYIY FAOLLIK VA TOLERANTLIKNI YUKSALTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY JIHATLARI

Shaxobidin Xolmatov

*falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, yoshlar siyosati, tolerartlik, fuqarolik mas'uliyati, modernizatsiya.

Annotatsiya: Bugungi kunda kelajak avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mamlakatimizda boshlangan va chuqur ildiz otib borayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasi va qolaversa, kelajagi buyuk davlat qurishdek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan

mazkur masalaning yechimiga bevosita bog'liqdir desak, hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatda fuqarolik jamiyati rivojlanishi darajasi, eng avvalo, yoshlarning siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi orqali aniqlanishi mumkin.

Ushbu maqolada yoshlarda ijtimoiy faollik va tolerantlikni yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ТОЛЕРАНТНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Шахобидин Холматов

кандидат философских наук, доцент

Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий

Узбекистан, г. Фергана

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: гражданское общество, активность, толерантность, ответственность, модернизация.</p>	<p>общество, социальная политика, гражданская</p>	<p>Аннотация: сегодня воспитание будущего поколения духовно грамотным приобретает первостепенное значение. Потому что нет преувеличения сказать, что именно от решения этого вопроса напрямую зависит положительный эффект начавшихся и глубоко укоренившихся в нашей стране экономических реформ и в какой степени будет решена такая ответственная и важная задача, как строительство великого государства. Уровень развития гражданского общества в стране можно определить, прежде всего, по политической активности молодежи и гражданской позиции. В этой статье исследуются социально-философские аспекты повышения социальной активности и толерантности у молодежи.</p>
---	---	---

KIRISH

O'zbek jamiyatida kechayotgan tub o'zgarishlar va ma'naviy yangilanish jarayonlari tufayli fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi va barkamol avlod tarbiyasi muhim ilmiy va ijtimoiy masalalardan biriga aylandi. Fuqarolik jamiyat asoslari shakllanayotgan respublikamizda, yoshlarimizning faollikni yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas'uliyatini yurakdan his qilish tuyg'ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustaxkam hayotiy pozitsiyani, e'tiqod hamda maslakni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan dars soatlari, o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan. Mazkur sa'y-harakatlarni amalga oshirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash

ko'nikmalarini mustahkamlash, qolaversa, bu borada faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash kelajakda natijalar keltiradi. Zero, zamonaviy ta'limning maqsadi har bir kishiga o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni olish va ularni jamiyat hayotiga tadbiiq etish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

“Yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash boshqalarga nisbatan ko'rqov va yotsirash tuyg'usini uyg'otadigan ta'sirlarga qarshi yo'naltirilmog'i lozim. U yoshlarni mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritishga o'rgatishi, ularga axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarashlarni shakllantirishga ko'maklashishi lozim. Bu pedagogik tayyorgarlik darajasini ko'tarish, o'quv rejalari, darsliklarning va darslarning mazmun – mohiyati, boshqa o'quv materiallari, jumladan yangi o'quv texnologiyalari masalalariga e'tibor berish zarurligini anglatadi va bundan ko'zlangan maqsad esa, boshqa madaniyatlarga ochiq va hayrixoh bo'lgan ziyrak hamda mas'uliyatli, erkinlikning qadriga yetadigan, insonning qadr-qimmatini va individualligini hurmat qiladigan fuqarolarni tarbiyalash, ziddiyatlarning oldini olish yoxud kuch ishlatmaslik vositalari bilan hal etish demakdir. Hozirgi sharoitda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolliigi va tolerantligi tobora yuksalib borayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.”[1]

Shu bois tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning intellektual ong va madaniyat darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng muhim printsiplarni anglab etishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim. Ayniqsa fuqarolik jamiyatini barpo qilishda fuqaro ongi, madaniyati, dahldorlik hissi va mas'uliyatini yuksaltirish hamda takomillashtirishni hozirgi talab darajasida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, yoshlar faoliyatida ushbu zaruriy masala o'zining dolzarb jihatlari bilan ajralib turadi va samarali tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yishimiz lozimligini yana bir bor qayd qilamiz.

“Fuqarolik jamiyati – mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim”[2, 438]. Fuqarolik jamiyatini insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi.

Taniqli siyosatshunos olim M.Qirg'izboyev ta'kidlaginidek: “...fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning institutlari tizimidagi barcha – davlat va nodavlat jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi”[3, 102]. Fuqarolik jamiyati tushunchasi fuqaro va davlat, huquq hamda majburiyatlarning uyg'unligiga asoslangan huquqiy jamiyat tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan davrda demokratik tamoyillarni shakllantirish, fuqarolar ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me’yorlar asosida ko’ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida jamoat va nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o’zida ifoda etgan holda fuqarolik madaniyati bilan tutashadi. Agar fuqarolik jamiyatini yuksak fuqarolik madaniyatini oshkor etish imkoniyati sifatida e’tirof etadigan bo’lsak, fuqarolarning ma’naviy etukligi bunday jamiyatdagi demokratik tamoyillarni to’liq anglash omili ekanligini tushunamiz. Chunki fuqarolik jamiyatida insonni oliy qadriyat darajada tushunish bevosita har bir fuqaroning o’z madaniyat darajasini qanchalik anglashi va unga sodiqligi bilan xarakterlanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish o’zining bir qator mezonlariga ega bo’lib, ularning asosiylaridan biri – har bir insonda mas’uliyat tuyg’usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Mas’uliyat odamning xar bir amali, faoliyati mahsulini to’liq tasavvur qilgan holda uning o’zi va o’zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas’uliyatni his qilgan inson o’z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo’ladi. Shaxsiy mas’uliyatni fuqarolik mas’uliyatidan farqlash lozim. Birinchisi shaxsning kundalik faoliyatidan keladigan shaxsiy manfaatni, ikkinchisi esa jamiyat manfaatlarini nazarda tutadi. Fuqarolik mas’uliyatini his etgan inson, eng avvalo, o’zi mexnat qilayotgan jamoa yoki ta’lim olayotgan o’quv dargohi, o’z mahallasi va yurti ravnaqini o’ylaydi. Mustaqil O’zbekiston fuqarolari uchun yagona maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilish bo’lsa, demak har bir inson fuqarolik mas’uliyatining ma’no-mazmunini ana shu g’oyalarni amalga oshirishda, deb bilishi darkor.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy faollik ijtimoiy munosabatlarning ongli, beg’araz tahliliga hamda ularning u yoki bu elementlarini o’zgartirishga intilish darajasini ifodalaydi. Inson ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan biron – bir jiddiy muammoga duch kelgan hamda ularni hal etish uchun yangi qonunlarni qabul qilish yoki mavjud qonunlar mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglagan taqdirda ijtimoiy faollik intilish yanada kuchayadi. Jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligi turli shakllarda namoyon bo’lishi mumkin. Namoyon bo’lishi tabiatiga ko’ra uni konstruktiv va destruktiv turlarga ajratiladi. Konstruktiv ijtimoiy faollik shundan iboratki, unda jamiyat a’zolari muayyan ziddiyatlar bilan to’qnashuvda ana shu ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy tizim. Qonuniy huquqiy dasturlar yordamida bartaraf etish uchun intiladi. Mavjud qonunlar asosida o’z manfaatlarini ifodalash, muammolarni hal qilish uchun jamoat birlashmalarini tuzadi.

Destruktiv deb belgilash mumkin bo’lgan ijtimoiy faollikning mazmuni o’zgachadir. Bunday faollik mavjud ijtimoiy tizimga qarshi qaratilgan bo’lib, uni yo’q qilishga intilishda

namoyon bo‘ladi. U mavjud huquqiy dasturlar bilan o‘z maqsadiga erishish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish imkoni yo‘q, deb hisoblangan vaziyatda yuzaga keladi. Bunday hollarda ijtimoiy faollik aniq huquqiy chegaralarga ega bo‘lmaydi. Bu esa ijtimoiy vaziyatning keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy faollikning ushbu turi ijtimoiy munosabatlardagi beqarorlik davrlarida kuzatiladi. Ijtimoiy faollik ijtimoiy tolerantlik bilan mutanosibdir.

Tolerantlik atamasi lotincha “chidamlilik” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgalarning fikrlari va qarashlariga nisbatan bag‘rikenglikni anglatadi. “Tolerantlik – bu tinchlikka erishish imkonining mavjudligi hamda urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyati sari etaklovchi omildir”, deyiladi 1995 yilda YUNESKOning Bosh Konferentsiyasi tomonidan qabul qilingan “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi”da. Darhaqiqat, tolerantlik, biz yashayotgan dunyo madaniyatlarining rang – barangligini, o‘zini namoyon etish shakllarini hurmat qilish, to‘g‘ri tushunish va qabul qila olish; aqidaparastlik, mutloq haqiqatdan voz kechish va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan me‘yorlarga qo‘shilish demakdir. Tolerantlik – bu yon berish, pisand qilmaslik yoki ikki yuzlamachilik emas, balki eng avvalo, inson huquq va erkinliklarini tan olish asosida qaror topadigan faol munosabatdir. Tolerantlik – bu o‘zgalarning fikri, qarashlari va hatti – harakatiga nifaol, tabiiy ravishda bo‘ysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida tushunish, ijobiy hamkorlik yo‘lidagi faol axloqiy afzallik va psixologik hozirlikni anglatadi[4, 7-8].

Tolerantlik yoshlarning o‘zgacha fikrlovchi shaxslarga hamda boshqa madaniyatlarga nisbatan destruktiv hatti – harakatlarning oldini olishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tolerantlik fuqarolik jamiyatining kognitiv asoslaridan biri hisoblanadi. Taraqqiy etgan huquqiy madaniyat va tolerantlikning shakllanishi – O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati hamda demokratik davlatchilikni mustahkamlashning eng muhim shartidir. “Shu bilan birga, yoshlarimizda tolerantlik madaniyatini tobora shakllantirib borish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu jarayonda esa mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy munosabatlar tizimini doimiy ravishda monitoring qilib borish; ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy va professional rivojlanishi uchun ko‘mak beradigan turli ijtimoiy-psixologik, huquqiy, axborot va konsultativ xizmatlar ko‘rsatish; turli funktsiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy xizmatlar markazlarini shakllantirish va O‘zbekiston yoshlariga XXI asrga xos bo‘lgan yangi innovatsion bilimlar berish zarur”[5, 35].

Insonda bolalikdan boshqa odamni qanday bo‘lsa, shundayligicha, uning fikri, tabiati, madaniyati, qarashlaridagi murakkabliklar bilan qabul qila olish layoqatini shakllantirish lozim. ta‘lim va tarbiya orqali yoshlarga shunday fikrni singdirish orqali odamlar turmush tarzi,

madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy faravonligi va hokazolarga qaramay, o‘zaro teng ekanligini anglatishi lozim.

“Ogoh bo‘lish, sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan befarq qolmaslik hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Bu esa yoshlarni mehr – oqibat, adolat, demokratiya ruhida tarbiyalash, ularda o‘z o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish tuyg‘usini shakllantirish, ijtimoiy faollikka bo‘lgan ehtiyoj, turli va keng ko‘lamdagi axborotlarni to‘g‘ri baholay olish va yangi bilim sohalarini o‘zlashtirish kabi xususiyatlarning shakllanishini jonlantiradi. Zamonaviy ta‘limning vazifalaridan biri yoshlar o‘rtasida ijtimoiy faollik va tolerantlikni rivojlantirishdir”[6, 18].

Sergak bo‘lish, sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan befarq qolmaslik hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy faolligini talab etadi. Bu esa yoshlarni mehr-oqibat, adolat, demokratiya ruhida tarbiyalash, ularda o‘z-o‘zini tarbiyalash tuyg‘usini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, axborotlar ko‘lamini to‘g‘ri baholay olish va yangi bilim sohalarini o‘zlashtirish kabi xususiyatlarni shakllantirishni talab qiladi. Zamonaviy ta‘limning ustuvorliklaridan biri yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik va ijtimoiy faollikning kuchayishida namoyon bo‘ladi.

“Ayrim yoshlar o‘z g‘alarining fikrini tushuna olmasligi va tushunishni istamasligi borasida qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ular ro‘paralarida o‘z fikrlash va hatti-harakat tarziga ega inson turganligini hatto tasavvur ham etolmaydi. Ko‘pincha ular boshqalarga o‘z fikrini o‘tkazishga intiladi, bundan tashqari ular bag‘rikenglik masalalarida savodsizdir. O‘quvchilar bag‘rikengligini shakllantirish dars jarayonida muloqotda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy tamoyillaridan foydalanish yaxshi samara beradi”[6, 156].

XULOSA

Yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash boshqalarga nisbatan ko‘rquv va yotsirash tuyg‘usini uyg‘otadigan ta’sirlarga qarshi yo‘naltirilmog‘i lozim. U yoshlarni mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritishga o‘rgatishi, ularga axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarashlarni shakllantirishga ko‘maklashishi lozim. Bu pedagogik tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, o‘quv rejalari, darsliklarning va darslarning mazmun-mohiyati, boshqa o‘quv materiallari, jumladan yangi o‘quv texnologiyalari masalalariga e’tibor berish zarurligini anglatadi va bundan ko‘zlangan maqsad esa, boshqa madaniyatlarga ochiq va hayrixoh bo‘lgan ziyrak hamda mas’uliyatli, erkinlikning qadriga etadigan, insonning qadr-qimmatini va individualligini hurmat qiladigan fuqarolarni tarbiyalash, ziddiyatlarning oldini olish yoxud kuch ishlatmaslik vositalari bilan hal etish demakdir. Hozirgi sharoitda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tolerantligi tobora yuksalib borayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni xar tomonlama etuk barkamol qilib voyaga etkazish uchun oila, mahalla, ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash oliy maqsadimiz hisoblangan ozod va obod erkin va farovon xayot barpo etish uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov, V. (2022). IJTIMOY FAOLLIK VA TOLERANTLIKNI YUKSALTIRISHNING MUHIM JIHATLARI. *Research Focus*, 1(4), 351-354.
2. Falsafa: qomusiy lug'at. Toshkent, 2004 yil.
3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. Toshkent, 2006 yil.
4. Tolerantlik tamoyillari demokratiyasi. Parij, 1995 yil, 16-noyabr.
5. Sh.Agabayev. Yoshlar siyosiy tolerantligini shakllantirish jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida. *Fuqarolik jamiyati*. 2021, №1(65).
6. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madiyeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Toshkent, 2006 yil.
7. Rayimov, A. A. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 29-32.
8. Gulnoza, K. (2023). MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 444-448.
9. Эгамназаров, А. И., & Косимов, К. И. (2022). ДИАЛЕКТИКА МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. *Экономика и социум*, (5-1 (96)), 843-848.
10. Shakhobiddin, K. (2023). FROM THE HISTORY OF CONCEPTS OF PHILOSOPHICAL CATEGORIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 153-157.
11. Shakhobiddin, K. (2022). The essence of the system of spiritual values. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 428-433.
12. Jumaboevich, K. S. (2020). Relationship of the government and civil society. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 117-119.